

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**YANGIBOYEV SIROJIDDIN JUROMURODOVICH**

**IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORIDA DAVLAT INVESTITSION**  
**SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.02 – Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in  
economic sciences**

**Yangiboyev Sirojiddin Juromurodovich**

Iqtisodiyotning agrar sektorida davlat investitsion siyosatini  
takomillashtirish..... 3

**Янгибоев Сирожиддин Журомуродович**

Совершенствование государственной инвестиционной политики в  
аграрном секторе экономики..... 29

**Yangiboev Sirojiddin Juromurodovich**

Improving the state investment policy in the agrarian sector of the  
economy..... 57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**YANGIBOYEV SIROJIDDIN JUROMURODOVICH**

**IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORIDA DAVLAT INVESTITSION  
SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.02 – Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Iqt1761 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Usmonov Anvar Saidmaxmudovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Valiyev Bobur Batirovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent moliya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "1" 03 kuni soat 16 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871)239-28-72; faks (99871)232-01-49, (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1258 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871)239-28-72; faks (99871)232-01-49, (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «15» 02 kuni tarqatildi.  
(2023-yil «15» 02 da 33 raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.K.Xudoyqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**B.D.Xajiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n., dosent

**N.M.Maxmudov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi.** Jahonda globallashuv va xalqaro raqobatning kuchayib borishi sharoitida agrar sektorda investitsion faollikni oshirish muammolari dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. COVID-19 global pandemiyasi iqtisodiy zarbalar, mojarolar va ekstremal iqlim sharoitlarida insonlarning to'liq ratsiondagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishlariga salbiy ta'sirni kuchaytirib, oziq-ovqat xavfsizligining misli ko'rilmagan darajadagi muammolarini yuzaga keltirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, "2020-yil oxiriga kelib pandemiya sabab katta daromad yo'qotishlari va oziq-ovqat narxlarining yuqori o'sishi sharoitida 79 mamlakatda 270 million kishi oziq-ovqat yetishmovchiligi muammosiga duch kelgan. 2050-yilga borib, iqlim o'zgarishi sababli ekinlar hosildorligi global miqyosda 10-25 foizga kamayishi mumkin"<sup>1</sup>. Ushbu tendensiya qishloq xo'jaligini kam chiqim va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga intensivlashtirishga qaratilgan keng ko'lamli investitsion siyosatni olib borishni taqozo qilmoqda.

Hozirda jahonda aholi farovonligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligida investitsion faollikni oshirish muammolariga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Agrar tarmoqdagi investitsion faollikni oshirishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish, umumiy milliy iqtisodiyotdagi investitsion faollikka nisbatan samaradorligini baholashda qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan indeks (Agriculture Orientation Index – AOI)dan foydalanish uslubiyatini takomillashtirish, qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalarning nisbiy samaradorligini baholash, tarmoq investitsion faolligini oshirishga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish samaradorligini ta'minlash, hududlar kesimida qishloq xo'jaligiga jalb qilingan investitsiyalarning nisbiy samaradorligini baholashda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va aholi turmush farovonligini ta'minlashda agrar sektorni rivojlantirishga muhim yo'nalishlardan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining qo'shimcha investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoji jamiyat rivojlanishining navbatdagi ijtimoiy-iqtisodiy modeli, ya'ni taraqqiyot strategiyasi doirasida boshqaruvning intensiv va innovatsion turlariga o'tish, takror ishlab chiqarishni kengaytirish muammolarini hal etish bilan ham bog'liqdir. Buning natijasida qishloq aholisining hayot sifati, turmush farovonligi, hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga shart-sharoit yaratiladi. Inson kapitali sifatini oshirish va qishloq aholisi bandligini ta'minlash zarurati ham investitsiya siyosatining o'ta dolzarb vazifalari qatoriga kiritilmoqda. "Biz uchun strategik tarmoq bo'lgan qishloq xo'jaligi samaradorligini tubdan oshirish va uni diversifikatsiya qilish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini klaster asosida qayta ishlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dolzarb vazifamiz bo'lib

---

<sup>1</sup> <https://www.fao.org/news/story/en/item/356770/icode/>

qoladi”<sup>2</sup>. Mazkur vazifani samarali amalga oshirishda ilmiy tadqiqot ishidagi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash zaruratidan hududlar qishloq xo’jaligi tarmog’i investitsion faolligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF–5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo’jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo’ljallangan strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”, 2019-yil 14-maydagi PF–5718-son “Tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga doir boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o’rganilganlik darajasi.** Qishloq xo’jaligi tarmog’ining investitsion faoliyati, investitsiyalardan tarmoq rivojlanishida foydalanish samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy va amaliy masalalari keng xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Ushbu muammoga oid ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar F.Kene, A.Smit, J.M.Keyns, U.Petti, R.Solou, R.Xarrod, E.Kasla, M.Bekker, A.Nelson, F.Uilyam Sharp, Gordon Dj.Aleksander, Djeffri V.Beyli, G.P.Jenkins, L.J.Gitman, M.D.Jonk, S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzi, I.N.Buzdalov, V.E.Afonina, K.R.Makkonell, S.L.Bryu, E.J.Dolan, D.E.Lindsey, V.Maslova, M.Osmolovskaya, I.N.Voblaya, O.B.Ugurchiev, D.O.Ugurchiev, V.D.Shapiro<sup>3</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida investitsiyalar nazariyasi va xususan qishloq xo’jaligida investitsion faoliyatning ilmiy-nazariy va konseptual asoslari yoritib berilgan.

O‘zbekiston iqtisodiyotining hududiy rivojlanishini tartibga solishda, iqtisodiyot turli tarmoqlarida investitsion siyosatni to’g’ri va samarali amalga oshirishda A.Sh.Bekmurodov, G.K.Saidova, A.M.Sodiqov, D.G’.G’ozibekov,

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalari qo’shma majlisidagi nutqi 18:02 / 06.11.2021 <https://uza.uz/posts/318163>

<sup>3</sup> Блауг М. Кенэ, Франсуа // 100 великих экономистов до Кейнса = Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. — СПб.: Экономикс, 2008.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. — М.: Эксмо, 2007.; Общая теория занятости, процента и денег / Дж. М. Кейнс. — М.: Прогресс, 1978.; Solow R. M. Technical Change and the Aggregate Production Function // The Review of Economics and Statistics (англ.)русск.. — 1957. — Август (vol. 39, № 3); Инвестиции / У. Шарп, Г. Александр, Дж. Бели. — М.: Инфра-М, 2001.; Cost benefit Analysis of investment Decisions / G. P. Jenkins, A. C. Harberger. — Canada: Manuel. Queens University, 2001.; Методологические аспекты анализа понятия «инвестиции» / И. Н. Бuzдалов, В. Е. Афонина // Известия ПГПУ им. В.Г. Белинского. — 2012.; Общая теория занятости, процента и денег / Дж. М. Кейнс. — М.: Прогресс, 1978.; Инвестиции в АПК в условиях импортозамещения / В. Маслова // АПК: экономика, управление. — 2014.; М. Осмоловская Инвестиционный процесс в АПК Краснодарского края: состояние и перспективы / М. Осмоловская // АПК: экономика, управление. — 2015. — № 3.; Вобляя И. Н. Особенности воспроизводства инвестиционной деятельности в региональном АПК // Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук.

B.B.Berkinov, L.F.Amirov N.G'.Karimov, N.R.Kuziyeva, Sh.R.Rajabbayev, B.Sh.Muminov, Sh.I.Mustafaqulov, A.Sabirov, S.A.Abduraximova, B.B.Valiyev, N.R.Rajabov, M.A.Raimjanova, M.X.Elmurodov, S.A.Nuriddinov, S.R.Umarov, B.Q.Hoshimov, A.X.Xudayberdiyevlar munosib hissa qo'shganlar<sup>4</sup>. Ushbu iqtisodchi olimlar tomonidan investitsion jozibadorlikni aniqlash, uning tarkibini tahlil qilish, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini baholash va hududlarning iqtisodiy resurslaridan foydalanish samaradorligini hisoblash, hududiy-sanoat komplekslarini ijtimoiy-iqtisodiy modellashtirish, mintaqaviy rivojlanishning asosini ishlab chiqish va metodologiyasini yaratish, shuningdek, erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish, investitsiya faoliyatini boshqarish tizimida moliyaviy hisobot va uning tahlilini takomillashtirish bilan bog'liq yo'nalishlar yoritilgan.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko'lamiga qaramay, agrar iqtisodiyotga nisbatan investitsiyalarning mohiyatini, ularning rolini chuqurroq va to'liqroq tavsiflashga, shakllanish manbalarini aniqlashga, samaradorligini baholashga asoslangan tizimli yondashuvga asoslangan ilmiy tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish talab etiladi. Shunga binoan qishloq xo'jaligida investitsiya jarayonini nazariy va uslubiy tadqiq etish, uning shakllari,

---

<sup>4</sup> A.Sh. Bekmurodov va boshq. Global iqtisodiy inqiroz davrida O'zbekiston moliya sektori: muammolar, natijalar va istiqbollari. Ilmiy monografiya. –T.: Moliya. - 2013.; G.K.Saidova Основные меры антикризисной программы Узбекистана и ожидаемый эффект от ее реализации // Материалы международной конференции «Мировой финансово-экономический кризис, пути и меры по его преодолению в условиях Узбекистана». - Т.: 2009.; A.M.Содиқов. Основы регионального развития: теория, методология, практика // Монография. Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2005.; D.G'. G'ozibekov Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari: Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Т., 2002.; Б.Б.Беркинов, Л.Ф.Амиров методические аспекты анализа и оценка эффективности финансово-экономических показателей отраслей аграрного сектора узбекистана //Journal of Economics. – 2022. – Т. 12. – №. 2.; N.G.Karimov Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari: 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Т., 2007.; N.R.Kuziyeva Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Т., 2008.; Sh.R.Rajabbayev O'zbekiston valyuta siyosatining xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ta'siri. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Т., 2008.; B.Sh.Muminov O'zbekiston iqtisodiyotida markazlashgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Т., 2012.; Sh.E.Mustafakulov O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSC) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: O'z.R.Bank moliya akademiyasi. 2017 y. Sabirov A. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. Дисс. кан. экон. наук. - Т., TDIU, 2009.; S.A. Abduraximova Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish. I.f.n. diss. – Т.: TDIU, 2012; B.B. Valiyev O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi. 08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot” Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2021.; N.R. Rajabov. Investitsion muhit jozibadorligini boshqarishni takomillashtirish (Navoiy EIZ misolida). Raimjanova M.A.O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Т., 2012.; M.X. Elmurodov Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion faoliyat va uni kredit bilan ta'minlash masalalari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Т., 2001.; S.A. Nuriddinov O'zbekiston iqtisodiyotining nodavlat sektorida investitsiyalarni moliyalash. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Т., 2000.; S.R. Umarov Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Т., 2008.; Hoshimov Q. B. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va uni takomillashtirish yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Т., 2004.; A.X. Xudayberdiyev Investitsiya faoliyatini boshqarish tizimida moliyaviy hisobot va uning tahlilini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Т., 2005.

samaradorligi va boshqaruv mexanizmini tavsiflashning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqishning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu muammoni hal etish zarurati tadqiqot mavzusini, maqsad va vazifalarini belgilashga imkoniyat yaratadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM. "O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirishning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Iqtisodiyotning agrar sektorida davlat investitsion siyosatini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

qishloq xo'jaligi tarmog'i takror ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlariga asoslangan holda investitsiyalarning iqtisodiy tabiatining ilmiy-nazariy asoslarini yoritish;

qishloq xo'jaligi tarmog'i investitsion faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini tizimlashtirish;

zamonaviy sharoitlarda O'zbekiston Respublikasi hududlarda qishloq xo'jaligidagi investitsiya jarayonining inqiroz holatining asosiy sabablarini aniqlash va uni bartaraf etish imkoniyatlarini baholash;

agrar sektorga jalb qilingan investitsiyalarning sohadagi intensiv iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilish;

agrar sektor investitsion jozibadorligi va xorijiy investitsiyalarni sohaga jalb qilish samaradorligini tahlil qilish;

qishloq xo'jaligi mahsulot ishlab chiqarishni innovatsion rivojlanishini ta'minlashga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalarni tizimlashtirish;

agrar sektorga investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar tizimini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib O'zbekiston Respublikasi, xususan Qashqadaryo viloyati agrar sektoridagi investitsion faoliyat hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti.** Hududlar iqtisodiyotining agrar sektoriga investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish jarayonlarida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda ilmiy bilishning ilmiy abstraksiyalash, kuzatish, guruhlash, taqqoslash, korrelyatsiya, regression tahlil va iqtisodiy-matematik modellashtirish singari usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (AOI) qiymatini amaldagi darajasiga nisbatan ikki baravarga oshirish asosida davlat byudjeti xarajatlari tarkibidagi qishloq xo'jaligiga sarflar ulushining tarmoq iqtisodiy o'sish samaradorligiga ta'sirining maqbul darajasini ta'minlash asoslangan;

qishloq xo'jaligi tarmog'idagi ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sish sur'atini ta'minlashda kapital hamda mehnat resurslari omillari nisbati o'rtasidagi



nomutanosiblikni moddiy-texnik bazani modernizatsiyalashga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish orqali bartaraf etish asosida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash taklifi asoslangan;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlariga ilg'or va "aqlli" texnologiyalarni tatbiq etishning "dolzarb nuqtalari"ni tanlash samaradorligini mazkur jarayonlarni texnologiyalashtirishning har tomonlama yo'nalishlarini davom ettirish imkonini oldindan belgilashga ko'ra tarmoq investitsion siyosatini joriy etish orqali ta'minlash asoslangan;

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiyalash orqali tarmoq yalpi qo'shilgan qiymatining 2025-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qishloq xo'jaligi iqtisodiy faollik ko'rsatkichiga investitsiyalar ta'siri koeffitsiyentining takomillashtirilgan uslubiyati asosidagi dinamik ko'rsatkichlar bo'yicha Qashqadaryo viloyatida investitsiyalarni qishloq xo'jaligi tarmog'i kesimida optimal joylashtirish dasturi ishlab chiqilgan;

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi investitsion salohiyatning moliyaviy komponentlari sifatida korporativ moliyalashtirish manbalarini yanada ko'paytirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan;

tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan: a) qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga sertifikatlangan qishloq xo'jaligi ekinlari urug'lari va ko'chatlarini xarid qilish uchun investitsiya kreditlarini ajratishning samarali mexanizmi ishlab chiqilgan; b) mahalliy urug'chilik xo'jaliklaridan sertifikatlangan qishloq xo'jaligi ekinlari urug'lari va ko'chatlarini sotib olgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga sotib olingan urug' va ko'chatlar qiymatining 20 foizigacha kompensatsion to'lovlar ajratish mexanizmi asoslangan;

IoTAg modeliga asoslangan "aqlli qishloq xo'jaligi" agrotex startap loyihalarini venchurli moliyalashtirish tizimini joriy qilish orqali yuqori qo'shilgan qiymat zanjiriga asoslangan mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va ushbu loyihalarni moliyalashtirish qiymatini minimallashtirishga davlat subsidiyalarini ajratish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullar, olingan natijalarning ishonchliligi undagi ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot boshqarmasining yillik rasmiy hisobotlaridan olinganligi, shuningdek, vakolatli organlar tomonidan tegishli xulosa va takliflar amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda hududlar qishloq xo'jaligi faoliyatini rivojlantirishga investitsiyalarni keng jalb qilishga oid yangi ilmiy konsepsiyalar, takliflar tizimlashtirilganligi va ulardan ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ilmiy tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda tizimlashtirilgan amaliy tavsiyalardan hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish va jalb qilingan investitsiyalardan samarali foydalanishga oid iqtisodiy rivojlanish dasturlari va tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyatga ega uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Iqtisodiyotning agrar sektorida davlat investitsion siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilganlik indeksi (AOI) qiymatini amaldagi darajasiga nisbatan ikki baravarga oshirish asosida davlat byudjeti xarajatlari tarkibidagi qishloq xo‘jaligiga sarflar ulushining tarmoq iqtisodiy o‘shish samaradorligiga ta‘sirining maqbul darajasini ta‘minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan “Hududlar agrar sektorida davlat investitsion siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining 2022-yil 23-dekabrda 03-30-2/10-15-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar hisobiga qishloq xo‘jaligiga xarajatlarni oshirish natijasida tarmoqdagi iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash, ushbu investitsiyalarni ichki tarmoq kesimida optimal taqsimlash hisobiga istiqbolda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash imkoniyatlari yaratilib, jumladan, Qashqadaryo viloyatida 2021-yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining viloyat YaHMdagi ulushi 41,4 foizni tashkil qilishi bilan bir qatorda tarmoqdagi intensiv rivojlanishni ta‘minlashga davlat xarajatlarining o‘shishi pirovardida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining 2020-yilga nisbatan o‘shish sur‘atini 101,9 foizga yetkazish imkonini bergan;

qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘shish sur‘atini ta‘minlashda kapital hamda mehnat resurslari omillari nisbati o‘rtasidagi nomutanosiblikni moddiy-texnik bazani modernizatsiyalashga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish orqali bartaraf etish asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni ta‘minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan “Hududlar agrar sektorida davlat investitsion siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining 2022-yil 23-dekabrda 03-30-2/10-15-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 2020-yilga nisbatan 2021-yildagi 106,9 foiz yillik o‘shishini ta‘minlash imkoni yaratilgan;

qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonlariga ilg‘or va “aqlli” texnologiyalarni tatbiq etishning “dolzarb nuqtalari”ni tanlash samaradorligini mazkur jarayonlarni texnologiyalashtirishning har tomonlama yo‘nalishlarini davom ettirish imkonini oldindan belgilashga ko‘ra tarmoq investitsion siyosatini

joriy etish orqali ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi tomonidan "Hududlar agrar sektorida davlat investitsion siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasining 2023-yil 10-yanvardagi 05-10/65-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida 2022-yilda Davlat byudjetidan qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga xarajatlar hajmini 5 trln. so'mgacha ko'paytirish, qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari uchun sug'orishning yangi texnologiyalariga o'tish, zamonaviy laboratoriyalar barpo etishga xarajatlar o'sishini ta'minlash imkoni yaratilgan;

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiyalash orqali tarmoq yalpi qo'shilgan qiymatining 2025-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-avgustdagi "2021–2022-yillarda Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish va infratuzilmani yanada yaxshilashga doir tezkor chora-tadbirlar to'g'risida"gi 479-son Qarori 3-illovasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasining 2023-yil 10-yanvardagi 05-10/65-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida qishloq xo'jaligiga davlat investitsiyalarining mamlakat yalpi ichki mahsulotining barqaror o'sishiga ta'sirining istiqbolli ko'rsatkichlari tizimlashtirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan xalqaro jurnallarda 2 ta, mahalliy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida 7 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Qishloq xo'jaligi sohasidagi davlat investitsiya siyosatining ilmiy-nazariy va konseptual asoslari"** deb nomlangan birinchi

bobida investitsion faoliyatning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishidagi ahamiyati, iqtisodiyotni agrar sektori investitsion faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari va prinsiplari, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sharoitida agrar sektorni modernizatsiyalashga investitsiyalarni jalb qilishning konseptual asoslari va obyektiv zarurligi kabi masalalari yoritilgan.

Investitsiya siyosati har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi va unda ishlab chiqarishni kengaytirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida qariyb chorak asrdan ko'proq davrdagi bozor munosabatlariga asoslangan islohotlar milliy iqtisodiyot tarmoqlari kesimida, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarida intensiv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan faol modernizatsiyalash siyosatini amalga oshirishga qaratilmoqda. Ushbu islohotlar faol investitsiya siyosatini amalga oshirishning fundamental asosini tashkil qilmoqda.



1-rasm. Investitsion faoliyat samaradorligi tasnifi<sup>5</sup>

Barcha tarmoqlar kabi qishloq xo'jaligida investitsiyalarning mohiyati va ahamiyatini aniqlashtirishda 2 ta yondashuvni ko'rish mumkin: birinchisi, asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarini maqsadli shakllantirish bilan bog'liq xarajat elementi. Ikkinchisi, asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarini takror ishlab chiqarish uchun zarur resurslar majmuasidir. Investitsiyalar nazariyasida davlat va

<sup>5</sup> Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

hududiy investitsion faoliyatni tartibga solishning samaradorligi va zarurligiga oid qator ilmiy ishlanmalar tizimlashtirilgan. Lekin, O‘zbekiston iqtisodiyotidagi bugungi transformatsion jarayonlar talablari asosida hududiy investitsion siyosatni iqtisodiy o‘shishning istiqboldagi tendensiyalariga pozitiv ta’sir ko‘rsatuvchi omillarini ifodalovchi samarali ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining moliyaviy-iqtisodiy asosi tizimli ravishda olib borilishi zarur bo‘lgan hududiy investitsion siyosat hisoblanadi. Hududiy investitsion siyosat strategik maqsadlarini to‘g‘ri belgilash, ushbu maqsadni samarali realizatsiya qilishga yo‘naltirilgan vazifalar algoritmini ishlab chiqish hamda optimal investitsion menejment tizimini shakllantirish hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni to‘g‘ri tashkil qilishni bosh omili hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, hududiy investitsion faoliyatni boshqarish samaradorligi hududiy investitsion siyosatni samarali realizatsiya qilishning muhim institutsional asosi hisoblansada, boshqarish samaradorligining asosiy determinantlari investitsiyalarning turli mezonlari bo‘yicha samaradorligi orqali baholanadi.

Investitsiyalar samaradorligi ma’lum loyihalarni realizatsiya qilish orqali olinadigan aniq qiymat ekvivalentlari yoki jamiyat ko‘rishi mumkin bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy naflilik bilan belgilanishi mumkin.

### 1-jadval

#### Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash ko‘rsatkichlar<sup>6</sup>

Mezonlar	Formula	Mezonlar
<b>Dinamik samaradorlik ko‘rsatkichlari</b>		
<b>Sof joriy qiymat (NPV)</b>		
Boshlang‘ich kamaytirilgan xarajatlardan natijalarning oshishi yoki butun hisob-kitob joriy ta’sirlar yig‘indisi sifatida	$NPV = \sum_{t=0}^T (R_t - Z_t) \cdot \frac{1}{(1+i)^t} = \sum_{t=0}^T \frac{FCF_t}{(1+i)^t}$ <p>bu yerda: <math>R_t</math> -t-chi hisoblash bosqichida erishilgan natijalar (daromadlar); <math>Z_t</math> -t-chi hisoblash bosqichida xarajatlar (joriy minus amortizatsiya va kapital qo‘yilmalar); T-hisob-kitob davri davomiyligi (<math>T=\sum t_i</math>); <math>i</math>-diskontlash stavkasi; <math>FCF_t</math>-hisoblashning t-chi bosqichida erishilgan samara</p>	Loyiha $NPV > 0$ bo‘lsa, samarali bo‘ladi
<b>Daromadlilik ko‘rsatkichi (PI)</b>		
Diskontlangan oqimlari nisbati va davr uchun investitsiyalarning diskontlangan qiymati	$PI = \frac{1}{K} \sum_{t=0}^T \frac{R_t - Z_t}{(1+i)^t}$	Loyiha $PI > 1$ da amal qiladi
<b>Ichki rentabellik darajasi (IRR)</b>		
Diskontlash stavkasi, bu yerda $NPV=0$ , investor uchun investitsiyalarning minimal qabul qilinadigan darajasi	$IRR = \sum_{t=0}^T (R_t - Z_t) \cdot \frac{1}{(1+i)^t} = \sum_{t=0}^T K_t \frac{1}{(1+i)^t}$	IRR moliyaviy bozorlarda $\geq$ o‘rtacha daromad darajasi bo‘lishi kerak
<b>Loyihaning qaytarilish muddati (qaytarish davri)</b>		
Kapital qo‘yilmalar umumiy effektlar bilan qoplanadigan loyiha boshlangandan boshlab vaqt	$\sum_{t=0}^T (R_t - Z_t) \cdot \frac{1}{(1+i)^t} = \sum_{t=0}^T K_t \frac{1}{(1+i)^t}$	

<sup>6</sup> Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Davlat investitsiyalarini boshqarish tizimi boshqaruv usullari va vositalaridan foydalangan holda hududiy investitsiya faoliyati ishtirokchilari bilan o‘zaro aloqadorlikka asoslanadi. Hududiy investitsiyalar tizimi esa mintaqa iqtisodiyotining real sektoriga xizmat qiladi, uni o‘z resurslari va resurslari bilan to‘ldiradi. Bu o‘z navbatida hudud investitsion faoliyatining elementi hisoblangan konkret loyihalar samaradorligini baholash orqali investitsiyalarni hududiy taraqqiyotga ta‘sirining samaradorligini baholash tizimini taqozo qiladi. Jahon amaliyotida konkret tanlangan loyihalarni baholashning iqtisodiy ko‘rsatkichlari tizimi shakllantirilgan bo‘lib, 1-jadvalda ushbu ko‘rsatkichlarning eng muhimlari tizimlashtirilgan.

Davlat tomonidan qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni rag‘batlantirish choralari tarmoqqa investitsiyalarni ko‘paytirishning samarali usullaridan biridir. Investitsiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosatining ko‘lami har bir mamlakatning tarmoqqa xos bo‘lgan nisbiy afzalliklari va qishloq xo‘jaligi salohiyatidan foydalanish imkoniyatlariga bog‘liqdir. Qishloq xo‘jaligidagi nisbiy afzalliklar O‘zbekiston sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, aholi daromadlarini oshirish, ular bandligini ta‘minlash bilan bir qatorda milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirishda ulkan imkoniyatlarga ega tarmoqlardan biridir. Buning uchun qulay investitsiya muhiti va samarali risklarni boshqarish tizimi talab qilinadi.

Ekstensiv rivojlanish uchun cheklangan imkoniyatlarni hisobga olgan holda, qishloq xo‘jaligining o‘sishi ko‘p jihatdan jismoniy, inson va intellektual kapitalga investitsiyalar orqali qo‘llab-quvvatlanadigan unumdorlikning o‘shishiga bog‘liq bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotni agrar sektori investitsion faoliyatining holati va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida iqtisodiyotni agrar sektori investitsion faoliyati samaradorligining tahlili, qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilganlik indeksi - qishloq xo‘jaligida davlat investitsion siyosati samaradorligining omili sifatida va agrar sektorga jalb qilingan investitsiyalarning tarmoqdagi intensiv iqtisodiy o‘shishga ta‘sirining tahlili amalga oshirilgan.

Respublika mintaqalarida investitsion muhit jozibadorligi va investitsion sig‘imi o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bois, mintaqa investitsion mavqeining yuqoriligini hamda mazkur ko‘rsatkich barqarorligi darajasini ta‘minlash va samarali boshqarish uchun izchil ravishda uning tarkibi va xususiyatlarini tadqiq qilish lozim. Respublikamizda agrosanoat majmuasida innovatsion rivojlanish kontekstidagi investitsiya siyosatini ishlab chiqish, uning rivojlanish tendensiyalari milliy iqtisodiyot va hudud iqtisodiy rivojlanishi, uning raqobatbardoshligini oshirishning bosh omillaridan biri hisoblanadi. Chunki, agrosanoat majmuasi avvalo, inson ehtiyojlari uchun birlamchi ahamiyat kasb etuvchi tovarlarni yetishtirish bilan bog‘liq muhim sotsial ahamiyat kasb etsa, ikkinchidan, qishloq xo‘jaligida global darajada raqobatbardoshlikni mustahkamlashdagi yuksak imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishning muhim omillarini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Uchinchidan, ushbu agrosanoat tarmoqlari innovatsion rivojlanishiga investitsiyalar milliy iqtisodiyotda drayver tavsifga ega bo‘lgan

tarmoqdagi yuksalish ko'rsatkichlari orqali iqtisodiy rivojlanishda yuqori multiplikativ samarani ta'minlaydi.

Qashqadaryo viloyatida tahlil qilinayotgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi tarmog'i asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarda yuqori ko'rsatkich 2016–2018-yillarda kuzatilgan.

Tahlil qilinayotgan davrda aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning Respublika bo'yicha o'rtacha darajadan hududlarni necha barobarga yuqori yoki past ekanligini aniqlashda hududlar kesimida aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi tarmog'i asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalarni Respublika bo'yicha indeksini ( $I_{ippa}$ ) hisoblash orqali tahlil qilishga harakat qilamiz. Ushbu indeks quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$I_{ippa} = \frac{\frac{I_{ra}}{\sum P_r}}{\frac{I_{ta}}{\sum P_t}} \quad (1)$$

bu yerda:  $I_{ra}/\sum P_r$  – hududlarda qishloq xo'jaligi tarmog'i asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalarni aholi jon boshiga nisbati;  $I_{ta}/\sum P_t$  – qishloq xo'jaligi tarmog'i asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalarni respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi hisoblanadi.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi tarmog'i asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni Respublika bo'yicha o'rtacha darajasini shartli ravishda 1 indeks deb qabul qilsak, o'rtachadan yuqori ko'rsatkich 2020-yilda Buxoro (2,53), Toshkent (2,19), Jizzax (1,99) viloyatlarida kuchli konsentratsiyalashuv kuzatilmoqda.

## 2-jadval

### Hududlar kesimida aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalarni Respublika bo'yicha o'rtacha indeksi<sup>7</sup>

Hududlar nomi	2016	2017	2018	2019	2020
Respublika bo'yicha jami	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2,37	1,30	1,69	1,97	1,80
Andijon viloyati	0,47	0,46	0,45	0,41	0,41
Buxoro viloyati	1,58	2,01	2,81	1,35	2,53
Jizzax viloyati	1,72	1,70	1,61	1,71	1,99
Qashqadaryo viloyati	1,38	1,49	1,61	1,38	1,09
Navoiy viloyati	0,37	0,97	0,88	1,90	0,86
Namangan viloyati	1,60	1,67	2,60	1,79	1,74
Samarqand viloyati	0,64	0,62	1,53	1,50	1,46
Surxondaryo viloyati	0,54	0,55	0,64	0,76	0,78
Sirdaryo viloyati	0,97	1,03	0,90	0,87	0,80
Toshkent viloyati	2,11	2,94	1,94	2,03	2,19
Farg'ona viloyati	1,51	1,46	1,37	1,40	1,40
Xorazm viloyati	0,62	0,55	0,55	0,44	1,47
Toshkent shahri	0,21	0,39	0,29	0,32	0,36
Variatsion kenglik, $R = X_{max} - X_{min}$	2,16	2,55	2,52	1,71	2,17


<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Variatsion kenglik nuqtayi nazaridan 2017-yilda qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga kiritilgan investitsiyalarni aholi jon boshiga ulushi o‘rtasidagi nisbatan kuchli tafovut kuzatilgan. Ushbu tafovut 2020-yilda 2,17 ni tashkil qilgan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda dissertatsion tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar tizimlashtirildi:

Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi tarmog‘i asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga nisbati ko‘rsatkichi bo‘yicha variatsion kenglikdagi kuchli tafovutning o‘zgarishi asosan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga investitsiyalarni jalb qilishdagi faolligiga bog‘liq bo‘lgan. Avvalo har bir hudud kesimida qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar jalb qilishda mahalliy davlat hokimiyati organlari hududdagi mavjud salohiyatni (qishloq xo‘jaligidagi) inobatga olgan holdagi faollikni yanada oshirish maqsadga muvofiq.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb qilishdagi faollikni oshirishda yuqori qo‘shilgan qiymat zanjiriga asoslangan zamonaviy loyihalarni amalga oshirishga investitsiyalarni jalb qilish maqsadga muvofiq. Chunki, olingan tahlil natijalari tasdiqlaydiki, hudud aholisi jon boshiga qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida yaratilgan qo‘shilgan qiymat o‘rtasida kuchli tafovut mavjudligi ishda asoslangan.



**2-rasm. Qashqadaryo viloyatida tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi va dinamikasi<sup>8</sup>**

Tadqiqot obyektimiz hisoblangan Qashqadaryo viloyatida aholi jon boshiga qishloq xo‘jaligi asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalarni Respublika bo‘yicha o‘rtacha indeksida o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkich kuzatilayotgan bo‘lsa-da, 2019–2020-yillarda dinamik pasayish kuzatilgan. Tahlillar tasdiqladiki, tarmoqqa investitsiyalarni jalb qilishdagi jon boshiga olingandagi ushbu pasayish mahalliy davlat hokimiyati organlarini investitsion faollik darajasini pasayishi hisobiga kuzatilgan.

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri respublikaning boshqa hududlariga nisbatan barcha tarmoqlar bo'yicha ulkan iqtisodiy salohiyatga egaligi hisoblanadi. Xususan, tabiiy geografik joylashuvi nuqtayi nazaridan ham ushbu hududda qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha katta imkoniyatlar mavjuddir. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarining ikkinchi maqsadini<sup>9</sup> 2030-yilgacha samarali ijrosini ta'minlashda qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni keng jalb qilish muhim ahamiyatga egadir. Jahon amaliyotida iqtisodiyotning agrar sektori investitsion faolligini oshirishning intensiv iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda keng qo'llaniladigan metodologiyalaridan biri Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (Agriculture Orientation Index – AOI) hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (AOI) davlat xarajatlaridagi qishloq xo'jaligi ulushining YaIMdagi qishloq xo'jaligi ulushiga nisbati sifatida aniqlanadi<sup>10</sup>. Buni quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$AOI = \frac{\frac{G_a * 100}{G}}{\frac{VA_a * 100}{GDP}} \quad (1)$$

bu yerda:  $G_a$ - jami davlat xarajatlarida qishloq xo'jaligiga qilingan xarajatlarning ulushi;  $G$ -muayyan davrdagi jami davlat xarajatlari;  $VA_a$ - muayyan davrda jami qishloq xo'jaligidagi yalpi qo'shilgan qiymat;  $GDP$ - muayyan davrdagi yalpi ichki mahsulot hisoblanadi. Ushbu indeks amaliyotda global masshtabda, hududlar va milliy iqtisodiyot kesimida hisoblanadi.

1-formulaga muvofiq, agar,  $AOI > 1$ , ushbu holatda iqtisodiyotdagi yalpi ichki mahsulotda agrar sektordagi qo'shilgan qiymat ulushiga nisbatan davlat xarajatlarining yuqori ulushini ifodalaydi.

### 3-jadval

#### Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (Agriculture Orientation Index – AOI) bo'yicha Markaziy Osiyoning yetakchi mamlakatlari<sup>11</sup>

№	Mamlakatlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020
1.	Qozog'iston	0,92	1,00	0,96	0,97	1,15	1,19
2.	O'zbekiston	0,17	0,14	0,17	0,19	0,18	0,21
3.	Qirg'iziston	0,10	0,11	0,10	0,14	0,08	0,16
4.	O'rtacha	0,35	0,39	0,39	0,44	0,47	0,48

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Markaziy Osiyo mamlakatlarida 2015–2020-yillarda qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi 0,35-0,48 atrofida tebrangan. Xususan, eng yuqori ko'rsatkich Qozog'istonda kuzatilib, 2020-yilda 1,19 ni tashkil qilgan. Ushbu holat davlat xarajatlarida tarmoqni rivojlantirishga faol davlat investitsiya siyosatining olib borilayotganligi bilan izohlanadi.

<sup>9</sup> <https://strategy.uz/index.php?news=956>.

<sup>10</sup> Qarang: United Nations Statistics Division. International Standard Industrial Classification Rev. 4. New York. Available at: <https://unstats.un.org/unsd/cr/registry/isc-4.asp>

<sup>11</sup> Qarang: The Food and Agriculture Organization (FAO). <https://www.fao.org/about/en/>

Ushbu ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasida tahlil qilinayotgan davrda 0,17-0,21 atrofida tebrangan bo'lib, tarmoqni investitsiyalar orqali qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining nisbatan past darajasi ta'minlanayotganligini tasdiqlaydi. Lekin, fikrimizcha qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu o'z navbatida mehnat unumdorligining yuqori ko'rsatkichi, mamlakatning tabiiy geografik joylashuviga asoslangan qulay iqlim sharoiti tarmoqning iqtisodiy rivojlanishdagi drayver sohalardan biriga aylantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Ishlab chiqarish-iqtisodiy omillar qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishning to'liqligi va samaradorligini hamda faoliyatning yakuniy natijalarini belgilaydi.

Ushbu baholash alohida firmalar yoki tarmoqlar darajasida ham, Kobb-Duglas multiplikativ modelidan foydalangan holda hududlar iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi sektori darajasida ham amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligidagi mavjud ishlab chiqarish funksiyasi – bu ishlab chiqarish hajmining ishlab chiqarishga sarflangan resurslar hajmiga bog'liqligini tavsiflovchi matematik model quyida keltiriladi:

$$Y = f(x_1, x_2, x_3 \dots x_n) \quad (2)$$

bu yerda:

$Y$ - qishloq xo'jaligida ishlab chiqariladigan mahsulotlar;

$x_i (i=1,2,\dots,n)$ -resurslar.

Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishdagi fikrlarni umumlashtirish natijasida ta'kidlash joizki, iqtisodiyotning agrar sektori barqarorligini quyidagicha ko'rish mumkin:

- 1) ishlab chiqarilgan va sotiladigan mahsulot hajmi va sifatini oshirish;
- 2) iste'mol miqdorini tejash va ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, ya'ni ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish;
- 3) xo'jalik faoliyati uchun avanslangan asosiy va aylanma mablag'lardan samarali foydalanish;
- 4) ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish.

Mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan resurslar sifatida biz ishchilarning o'rtacha yillik soni ( $L$ ), asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati ( $K$ )da ifodalangan asosiy vositalarning xarajatlari shaklida mehnat xarajatlarini olamiz.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga kapital va mehnat sarfining ta'sirini Knut Uiksell tomonidan taklif qilingan hamda Charlz Kobb va Pol Duglas tomonidan tekshirilgan funksiya ya'ni Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi orqali ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Ushbu ishlab chiqarish funksiyasi, bizning masalamizga muvofiq quyidagicha:

$$Y = AK^{a_1}L^{a_2}e^{rt+\varepsilon} \quad (3)$$

Bu yerda:

$A$ - texnik taraqqiyot koeffitsiyenti;

$a_1, a_2$ -qishloq xo'jaligidagi kapital va mehnat resurslarining elastikligi koeffitsiyenti;

$t$ - vaqt;

$r$ - qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mavjud texnik taraqqiyot natijasidagi ishlab chiqarilgan mahsulotning o'sish sur'ati.

$a_1$ ,  $a_2$ -parametrlar interpretatsiyasi uchun logarifmik omil sifatida elastiklik tushunchasini kiritamiz. Ya'ni,  $a_1$ -asosiy fondlarga investitsiyalar o'zgarishiga nisbatan yalpi ishlab chiqarish o'sishining elastikligi;  $a_2$ -mehnat resurslariga xarajatlar o'zgarishiga nisbatan yalpi ishlab chiqarish o'sishining elastikligi.

Shuningdek, ishlab chiqarish funksiyasi yordamida yana ishlab chiqarish masshtabi va samaradorligini ifodalash mumkin. Buni quyidagi tenglamalar funksiyasi orqali ifodalash mumkin:

Agar,  $a_1+a_2>1$ .

Demak, yalpi ishlab chiqarish hajmi qiymat ekvivalentida ishlab chiqarish omillariga nisbatan yuqori o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Bunda, ishlab chiqarish masshtabining kengayishi xarajatlarni iqtisod qilish hisobiga intensiv o'sish kursini ta'minlaydi.

Agar,  $a_1+a_2<1$ .

Demak, yalpi ishlab chiqarish hajmi qiymat ekvivalentida ishlab chiqarish omillariga nisbatan past sur'atdagi o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Bunda ishlab chiqarish masshtabi o'sishi samaradorligini pasaytiruvchi ta'sirida bo'ladi. Bunday sharoitda qishloq xo'jaligi investitsion faolligini oshirish, unga investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Agar,  $a_1+a_2=1$ .

Demak, samaradorlik ishlab chiqarish masshtabiga bog'liq bo'lmaydi. Ushbu holat qishloq xo'jaligida ekstensiv iqtisodiy o'sish sur'atidagi o'sishini ifodalaydi. Ushbu holatda ham boshqa tarmoqlardagi iqtisodiy o'sishning intensiv kursi sharoitida qishloq xo'jaligi investitsion jozibadorligi past darajada qoladi.

Respublikamiz hududlari orasida qishloq xo'jaligi bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishda drayver hududlardan biri bo'lgan Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi tarmog'i misolida investitsiyalar samaradorligini yalpi ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

#### 4-jadval

#### Qashqadaryo hudud iqtisodiyotidagi qishloq xo'jaligi tarmog'ining samaradorlik ko'rsatkichlari

Yillar	Y (YaQQ)	K	L	t	lnY	lnK	lnL
2012	3611,6	51561,47	289,3	1	8,19	10,85	5,67
2013	4061,5	74581,82	304,3	2	8,31	11,22	5,72
2014	5096,6	84938,71	323,7	3	8,54	11,35	5,78
2015	5848,3	38672,61	336,9	4	8,67	10,56	5,82
2016	7220,6	23314,47	345,1	5	8,88	10,06	5,84
2017	9150,6	39575,34	342,3	6	9,12	10,59	5,84
2018	10674,6	453482,1	300,9	7	9,28	13,02	5,71
2019	12189,1	537239,5	302,2	8	9,41	13,19	5,71
2020	14528,9	597812,2	307,6	9	9,58	13,30	5,73
2021	17346,1	652284,4	325,8	10	9,76	13,39	5,79

Yillik ma'lumotlar hududiy iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi tarmog'i tizimida resurslardan foydalanish samaradorligini ekonometrik tahlil qilish uchun Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi asosida 2012–2021-yillar bo'yicha statistik ma'lumotlar massividan foydalanamiz.

